

12-ilova

**2025 yilning 1-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT ***

“O’zMinda” XIK MCHJda tashkil qilingan aloqa kanallari bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Ya’ni, Ishonch telefoni 2010 yil mart oyida Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali boyicha quyidagi aloqa kanallari mavjud.

Elektron manzil info@uzminda.uz

Telegram messenjeridagi aloqa kanali <https://t.me/uzminda>

Ishonch telefoni +9988 79 220 01 05 (virtual:79-225-65-59)

Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali <https://www.uzminda.uz/page/contacts>

Facebook <https://facebook.com/uzminda>

“O’zMinda” XIK MCHJda 2025 yilning 1-choragi davomida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar mavjud emas.

Shuningdek, “UzautoComponents” MCHJning 26.09.2022 yildagi 07-042-sonli “Komplayens nazoratiga oid hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va tizimlashtirish to‘g‘risida”gi qabul qilingan buyrug‘i asosida korxonada O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi Korruasiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minalash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 27 maydaggi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari talablarini o‘z vaqtida bajarilishini ta’minalash maqsadida korxonada qabul qilingan siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar bilan korxonaning barcha xodimlari tanishtirilgan.

Korxonada 2025 yilning 1-choragi davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan va ijrosi xar chorak bo‘yicha nazoratga olingan.

Korxonada manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha tegishli ichki idoraviy hujjatga asosan xodimlar tomonidan 2024 yil davomida to‘ldirilgan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklarasiyalar tahlil qilib chiqildi.

Korxona bo‘yicha jami 99 nafar xodimlar tomonidan to‘liq manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyalar to‘ldirildi. Belgilangan tartibda deklaratsiyalar tahlil qilindi. Natijada, korxonada jami 6 nafar xodim bo‘yicha qarindoshlik darajasi aniqlandi. Biroq manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanmadи.